

REZYUME

Maqolada gimnastika bo'yicha sport mahoratini oshirishning maqsadi va vazifalari bayon qilingan. Gimnastika mashg'ulotlari pedagogik vazifalarga harakatlantiruvchi faoliyat tizimiga muvofiq tarzda sof mashqlar, badiiy gimnastika mashqlari kabi guruhlariga taqsimlanishi misollar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, gimnastikaning sport mahoratini oshirishdagi xususiyatlari va asosiy vositalari atroflicha o'rganilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются цели и задачи совершенствования навыков гимнастики. На примерах проанализировано разделение занятий гимнастикой на группы, такие как чисто упражнения, упражнения художественной гимнастики в соответствии с системой мероприятий, мотивирующих педагогические задачи. Также подробно изучены особенности и основные средства гимнастики в повышении спортивного мастерства.

SUMMARY

The article discusses the goals and objectives of improving the skills of gymnastics. The division of gymnastics classes into groups such as pure exercises, rhythmic gymnastics exercises in accordance with the system of activities that motivate pedagogical tasks is analyzed on the basis of examples. The features and basic tools of gymnastics in improving sportsmanship are also studied in detail.

OLIY TA'LIMDA TALABALARGA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA PEDAGOGIK KOMPONENTLIK

A.Kiyasova – *assistent o'qituvchi*

G.Koyshibaeva – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlari: interfaol metodlar, pedagog, innovatsiya, "Zinama-zina", "Venn diagrammasi", bilim, ko'nikma, malaka, samaradorlik, baholash.

Ключевые слова: интерактивные методы, педагог, инновации, «Шаг за шагом», «Диаграмма Венна», знания, навыки, квалификация, эффективность, оценка.

Key words: interactive methods, teacher, innovation, Step by Step, Venn Diagram, knowledge, skill, qualification, efficiency, evaluation.

Oliy ta'limni rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bug'inlari faolivatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz». Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy komponentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish, rivojlanishning o'zbek modelini ishlab chiqish, oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Ta'lim jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo'naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omilidir. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan ko'ra biladi va belgilaydi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PO 2909-son Qarori, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 3775-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'voriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlangan edi. O'zbekiston "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asosan oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar ta'limini boshqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Bu qarorlar bugungi kun kelajagini belgilovchi yoshlarni bilimli, xorijiy mamlakatlar bilan raqobatlasha oladigan mamlakat yaratuvchisi yoshlarni zukko, intellektual, ma'naviy kamol topgan, shuningdek,

xorijiy tillarni mukammal biluvchi inson qilib tarbiyalash bugungi kun pedagoglarining va yoshlarni bilim olishga intilishi va xorijiy tillarni o'rganishi ularning vazifasidir. Oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar ta'limining rivojlanishi ularning maqsad hamda vazifalarini tobora bir-biriga yaqinlashtirib, ularni birlashtirmoqda [3].

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga xorijiy tillarni o'rgatishda ularga samarali ta'lim berishda ta'limning interfaol metodlarini ta'lim tizimiga joriy qilish zamonaviy kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchi-pedagog uchun o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish va bilimga chanqoq yoshlar bilan to'la auditoriyaga katta xajmdagi bilimlarni berishning o'zi yetarli emas. Talabalar o'quv jarayoniga faol jalb qilingandagina berilayotgan materiallarni oson idrok eta oladi, tushunadi va eslab qoladi. Bu fan o'qituvchisining mahorati va bilimiga bog'liq.

Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda asosiy metodik innovatsiyalar o'qitishning interfaol metodlarini qo'llashni taqozo etmoqda, lekin zamonaviy mahoratli o'qituvchi nafaqat interfaol metodlar, balki an'anaviy metodlar bilan ham sifatli ta'limni amalga oshira oladi.

Bugungi kunda pedagogika ta'limining samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etilmoqda. Respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda: Interfaol metodlar: "Keys-stadi", "Blits-so'rov", "Ijodiy ish", "Suhbat", "Aqliy hujum", "Bumerang", "Zinama-zina", "BBB", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster" va boshqa metodlar.

Bu metodlar zahirida ham an'anaviy metodlarning zamonaviy ko'rinishi aks etadi aslida. Bu metodlar dars jarayonida xorijiy tilni o'qitishda ko'p yordam beradi va dars natijasini samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Bunda amaliy dars jarayonida bu metodlardan foydalanib dars jarayonini oson va qiziqarli bo'lishda, o'quvchilarni zeriktirmasdan chet tilini oson va yengil tushunib olishlarida, xorijiy tilni grammatikasini o'rgatishda va amaliy so'zlashishni o'rgatishda foydalanishda xizmat qilishi lozim.

Xorijiy tilni o'rgatishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik asoslari o'rganilib, o'quv jarayonida zamonaviy interfaol o'qitish usullaridan samarali foydalanish uchun pedagog o'z mutaxassisligidan tashqari pedagogik mahoratini yo'lga qo'ygan bo'lishi, pedagogik kompetensiyasi zarur, sababi mahorati mukammal o'qituvchi hamma masalani to'g'ri hal qila oladi [4].

Xorijiy tilni o'rgatishda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar bilimlarini mustahkamlash uchun kerakli bo'lgan turli tadqiqotlarda samarali natijalar beruvchi metodlarning tanlanishini, qo'llaniladigan axborot texnologiyalardan samarali foydalanish, talabalarni to'g'ri baholash, ular bilan suhbat metodlaridan foydalanib do'stona munosabatni tashkil qila bilishi o'qitishni samarali olib borishida qo'l keladi.

O'quv mashg'uloti mavzusini tushuntirishda faktli materiallardan foydalanish va talabalarda kuchli motivatsiyalarning vujudga kelishiga, bilishga qiziqishini kuchaytirishga sabab bo'ladi. Biroq o'quv materiallarini bayon qilishga tarixiy yondashish qo'shimcha xarakterga ega bo'lishi, mavzu bo'yicha egallanayotgan bilimlar tizimi ichida mantiqiylik saqlanishi kerak.

Tariximizda buyuk allomalar Farobiy, Beruniy, Buxoriy va boshqa allomalarimiz eng dastlab til o'rganganlar, yoshlarni bu sifatlarini bilishi ularni til o'rganishida motivatsiya paydo qiladi.

U yoki bu mavzuga oid qisqa metrajli hujjatli film, suhbatlar (dialog) va boshqa multimediya vositalari kuchli motivatsion omil hisoblanadi. Biroq bu tarzda pedagog bilan talaba munosabati evristik suhbat mazmuniga zamin yaratishi, talabalarda mavzuni o'rganishga ehtiyoj seziladi va ko'zlangan maqsadga erishiladi. O'qituvchi anglab yetishi kerak bo'lgan holat shundan iboratki, darsda motivatsiyani talabalarda rivojlantirish asosiy maqsad emas, balki talabaning bilish faoliyatini tezlashtirish vositalaridan biri sanaladi.

Talabalar xorijiy tilni o'ziga zarur bo'lgan fan sifatida qabul qilish majburiyatini shakllantiramiz, sababi talabalar o'zi uchun zarur bolgan ijtimoiy javobgarlikni his qilishlari kerak, shundagina ular fanni sevib qabul qilishadi va bu hisni interfaol metodlar orqali shakllantiramiz. Bulardan tashqari lingafon xonalari bilan ta'minlangan auditoriyalar

va talabalarni kichik guruhlariga bo'lib o'rganish talabalarni til o'rganishda asosiy yordamchi sanaladi.

Zamonaviy ta'limda pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasidan foydalanib darslarni tashkil etish yangidan yangi pedagogik tafakkurlashni, fikr yuritishni taqozo etadi. Zamonaviy o'qituvchida faqat keng ko'lamdagi, tizimli bilim, ko'nikma va malakalar talab etiladi. Bu esa pedagogik texnologiyalarni shakllanishini talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'zini-o'zi uzluksiz, doimiy ravishda rivojlantiruvchi, ijodkor shaxs bo'lishiga talabalarda motivatsiya uyg'otish va e'tiborni kuchaytirish davr talabidir. O'quv mashg'uloti jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashga o'rgatishning maqsadi va istiqbollari porloq bo'lib, bu ta'limni tashkil etish jarayoni ustuvorligini ta'minlabgina qolmay, balki ijtimoiy buyurtma sifatida butun jamiyatni bilimli tillarni biluvchi insonlar sifatida mamlakatimizda talab kuchaymoqda. Oliy o'quv yurtlarida o'qishga kirish uchun xorijiy tilni o'rganish majburiyati qo'yilmoqda. Bu yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga etkazish uchun ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan ta'minlash zarur deganidir.

Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylantirishni ta'minlash maqsadida, o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tajriba yig'ish va bu metodlarni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Zero, ta'lim - jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo'naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omilidir. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi.

Adabiyotlar

1. 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori.
3. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 son Farmoni.
4. Romanova S. Ta'lim jarayonida pedagogning o'quv uslubiy ishlari samaradorligi / Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillar bo'yicha o'quv uslubiy majmualar sifat va samaradorlik ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. 11-oktyabr 2017-yil, 56-58-b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyasi, interfaol usullardan samarali foydalanish yo'llari haqida so'z yuritiladi. Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'qitishda talabalar bilan ishlashning samarali yo'llaridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются инновационные образовательные технологии, современные информационные технологии в образовательном процессе, способы эффективного использования интерактивных методов. Приводятся рекомендации по эффективному использованию эффективных способов работы со студентами при обучении иностранному языку в высших учебных заведениях.

SUMMARY

The article deals with innovative educational technologies, modern information technologies in the educational process, ways of effective use of interactive methods. Recommendations are given on the effective use of effective methods of working with students in teaching a foreign language in higher educational institutions.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ ТьюТОРСТВА ЗАРУБЕЖНЫХ ВУЗОВ

Т.У.Куллиязов – преподаватель

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Таянч сўзлар: модернизация, тьюторликининг институционаллашган шакли, тьюторлик тизим, тьюторлик тизим тузилиши, тьюторлик амалиёт, норматив моделлар.

Ключевые слова: модернизация; институционализованный форма наставничества, тьюторская система, структура тьюторской системы, практика тьюторства, нормативные модели.

Key words: modernization, institutionalized form of tutoring, tutoring system, structure of tutoring system, practice of tutoring, normative models.

Изучение современного опыта и практик зарубежных вузов в социально-педагогической деятельности, имеющихся во многих мировых университетах, позволяет анализировать и систематизировать направления, формы и способы осуществления деятельности тьюторов в разработке инновационных моделей-структур социально-культурного воспитания и наиболее

объективно оценивать возможности его использования в моделировании образовательного пространства конкретного вуза. Имеющийся опыт образовательно-воспитательной работы любого вуза, несомненно бесценен, но в свете динамики развития общества он требует модернизации и новых подходов.